

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

TADJIYEV ANVAR AMINOVICH

**JINOYAT PROTSESSIDA DALILLAR MAQBULLIGINI
TA’MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika,
tezkor-qidiruv huquq va sud ekspertizasi**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD)

Tadjiyev Anvar Aminovich

Jinoyat protsessida dalillar maqbulligini

ta'minlashni takomillashtirish3

Таджиев Анвар Аминович

Совершенствование обеспечения допустимости

доказательств в уголовном процессе 21

Tadjiyev Anvar Aminovich

Improving the provision of evidence admissibility

in criminal proceedings..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

TADJIYEV ANVAR AMINOVICH

**JINOYAT PROTSESSIDA DALILLAR MAQBULLIGINI
TA’MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika,
tezkor-qidiruv huquq va sud ekspertizasi**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Yu990 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://akadmvd.uz>) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Rajabov Baxtiyor Almaxmatovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor

Astanov Istam Rustamovich
yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat yuridik universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 14-noyabr kuni soat 11:00 daqi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68. Tel./faks: (+99871) 265-22-52; e-mail: info@akadmvd.uz.)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (AD 1646-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68. Tel.: (+99871) 265-22-52).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 1-noyabr kuni tarqatildi.

(2025-yil 1-noyabrdagi 28-raqamli reestr bayonnomasi).

A.S. Tursunov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor

A.D. Xusanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Sh.A. Kulmatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda jinoyat ishlarini yuritish jarayonida, xususan dalillar maqbulligi talablariga rioya etilishida shaxslarning huquq va erkinliklari himoyasini to'laqonli ta'minlashga, isbot qilish jarayonida qonun talablariga og'ishmay rioya etilishi masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"¹ning 10-moddasida ham har bir shaxs adolatli sudlovga haqli ekanligi masalasiga alohida urg'u berilganligi, nomaqbul dalillar asosida qabul qilingan qarorlar esa inson huquqlarini poymol etishi mumkinligi ham mazkur masalalarning qanchalik ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. 2024-yilda dunyo davlatlarining qonun ustuvorligi indeksi (WJP) bo'yicha O'zbekiston Respublikasi 0,49 ball bilan 83-o'rinni egallab², ilgari ko'rsatkichlarni yaxshilagan bo'lsa-da, dunyo miqyosida ushbu ko'rsatkichlar o'rta darajadan past ekanligini kuzatish mumkin. Bu esa, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tergov va sud jarayonlarida jinoyat-protsessual qonunchiligida belgilangan dalillar maqbulligi talablariga rioya etilishi qay darajada ekanligi bilan bog'liq masalalarni o'rganib chiqishni taqozo etmoqda.

Jahonda tergov va sud faoliyatida dalillar maqbulligini ta'minlash bo'yicha zamonaviy va samarali mexanizmlarni joriy etish, xalqaro standartlarga muvofiq tergov hamda sud faoliyatini yo'lga qo'yish, ushbu jarayonlarni xalqaro huquq normalariga tayangan holda huquqiy tartibga solish, jinoyat-protsessual faoliyatini konstitutsiyaviy prinsiplarga ko'ra mustahkamlash, dastlabki tergovda shaxslarga nisbatan turli tazyiqlarning oldini olish uchun xalqaro prinsiplar ustuvorligiga zamin yaratish, dalillar maqbulligini ta'minlash tizimini yanada yaxshilashda xalqaro tajribadan foydalanish va amaliyotda uchrayotgan ayrim muammolarga yechim topish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda jinoyat-protsessual qonunchilikni tubdan takomillashtirish va sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash maqsadida keng qamrovli hamda tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, xalqaro isbotlash standartlari³ tamoyillari asosida dalillar maqbulligini ta'minlash tizimini qayta ko'rib chiqish, jinoyat-protsessual qonunchiligida maqbul emas deb topilgan dalillardan foydalanishga yo'l qo'ymaslik hamda bu borada faoliyat olib boruvchi subyektlarining mas'uliyatini kuchaytirish vazifalari mavzuning dolzarbligini o'zida ifoda etadi. Sudlar tomonidan oxirgi besh yilda oqlangan shaxslar soni 4690 nafarni (2020-y. – 781 nafar, 2021-y. – 932 nafar, 2022-y. – 1010 nafar, 2023-y. – 1244 nafar va 2024-y. – 723 nafar), 2025-yilning birinchi yarmida esa ushbu ko'rsatkich 204 nafarni tashkil etganligi yurtimizda dalillar maqbulligi masalalariga kuchli e'tibor qaratilayotganidan darak beradi⁴. Shuningdek,

¹ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Rezolyutsiya 217 A (III) bilan 1948-yil 10-dekabrda qabul va e'lon qilingan) // URL: <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights> (Murojaat etilgan sana: 10.05.2025)

² The 2024 WJP Rule of Law Index // URL: <https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index/global> (Murojaat etilgan sana: 10.05.2025)

³ Izoh: ushbu standartlar Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, BMTning Qiynoqlarga qarshi konvensiyasi va boshqa xalqaro hujjatlarda aks etgan.

⁴ Sudlar faoliyati bo'yicha statistik ko'rsatkichlar // URL: <https://stat.sud.uz/criminal> (Murojaat etilgan sana: 10.08.2025)

jinoyat-protsessual qonunchiligimizga yangi, ya'ni ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish, aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv, jinoyat ishi bo'yicha dastlabki eshituv kabi institutlarning joriy etilganligi, sud qarorlarini qayta ko'rish holatlari hamda nomaqbul dalillarning jinoyat ishidan chiqarib tashlash asoslarining kengayishi dalillar maqbulligini ta'minlash tizimida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan tadqiqotlar qamrovi qanchalik keng ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi PF-4850-son "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 30-noyabrdagi PF-5268-son "Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2020-yil 10-avgustdagi PF-6041-son "Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida", 2024-yil 10-iyundagi PF-89-son "Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, shuningdek, 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son "Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori hamda sohaga doir boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz olimlari G'.A. Abdumajidov, B.A. Azixodjayeov, B.T. Akramxodjayeov, A.X. Asamutdinov, I.R. Astanov, Z.F. Inog'omjonova, Sh.X. Inomjonov, Y.J. Isabayev, A.A. Matchanov, D.M. Mirazov, B.A. Mo'minov, B.B. Murodov, F.M. Muxitdinov, B.H.Po'latov, B.A. Rajabov, M.A. Radjabova, S.M. Raxmonova, B.N. Rashidov, U.B. Sattarov G.Z. Tulaganova, U.A. Tuxtasheva, G'.A. Yangiyevlar tomonidan jinoyat protsessida dalillar maqbulligini ta'minlashning ayrim jihatlari tadqiq etilgan. Jumladan, G'.A. Abdumajidov, Z.F. Inog'omjonova, Sh.X. Inomjonovlar dalillar nazariyasi muammolariga, B.A. Azixodjayeov va G'.A. Yangiyevlar jinoyat protsessida dalillarga baho berish masalalariga, B.H. Po'latov dalillar maqbulligini ta'minlash jarayonida ishtirok etuvchi subyekt sifatida qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati xususiyatlariga, D.M. Mirazov tergovga qadar tekshiruv organlari faoliyatida dalillarning ahamiyati masalalariga, G.Z. To'laganova dalillarning nazariy xususiyatlariga, U.A. Tuxtasheva sud xatolarida dalillarning ahamiyatiga, S.M. Raxmonova dastlabki eshituv institutida dalillar nomaqbulligi shartlariga,

B.A. Rajabov jinoyat protsessida dalillar maqbulligi talablariga o‘z asarlarida to‘xtalib o‘tganlar.

Xorijiy mamlakatlarda jinoyat ishlarini yuritish jarayonida dalillar maqbulligini ta‘minlash masalalari I.V. Abrosimov, V.S. Balakshin, K.V. Bezruchko, P.I. Grebenkin, L.G. Demurchev, Y.A. Karyakin, S.V. Kornakova, R.V. Kostenko, N.V. Kostovskaya, Y.A. Kupryashina, Y.E. Kurziner, O.Y. Mamedov, V.S. Popov, A.A. Prokopenko, V.I. Tolmosov, L.S. Sheyfer, O.Y. Yatsishina kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Bugungi kunga qadar mamlakatimizda jinoyat protsessida dalillar maqbulligini ta‘minlash bilan bog‘liq masalalar maxsus tadqiq etilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirishning dolzarb masalalari” (2023-2025) mavzusidagi loyiha doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi jinoyat protsessida dalillar maqbulligini ta‘minlashni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jinoyat protsessida dalillar maqbulligini ta‘minlashning ahamiyatini yoritish hamda u bilan bog‘liq tushunchalarni tahlil qilish;

jinoyat protsessida dalillar maqbulligini ta‘minlash tartibining retrospektiv tahlilini amalga oshirish;

jinoyat ishlarini yuritishda dalillar maqbulligini ta‘minlashning milliy qonunchiligimizdagi huquqiy tartibga solinganlik holatini tahlil qilish;

jinoyat protsessida dalillar maqbulligiga qo‘yiladigan talablarni tahlil qilgan holda ushbu talablarni takomillashtirish yo‘nalishlarini tadqiq etish;

jinoyat protsessida dalillar maqbulligini ta‘minlanishining bugungi kundagi holati va u bilan bog‘liq mavjud muammolarni o‘rganish hamda ularga yechim topish bo‘yicha asoslantirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

ayrim xorijiy mamlakatlar jinoyat-protsessual qonunchiligida dalillar maqbulligini ta‘minlashning ijobiy xususiyatlarini o‘rgangan holda ularni milliy qonunchiligimizga tatbiq etish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini jinoyat protsessida dalillar maqbulligini ta‘minlash bilan bog‘liq jarayonlarda vujudga keladigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimi tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini jinoyat protsessida dalillar maqbulligini ta‘minlash jarayonida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, ularni qo‘llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi hamda yuridik fanda mavjud konseptual yondashuvlar va ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda analiz, sintez, induksiya, deduksiya, tarixiylik, mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy, tizimli tahlil, shuningdek sotsiologik so‘rovlar o‘tkazish, tergovga qadar tekshiruv hamda jinoyat ishi materiallari, sud hukmlari va ajrimlarini tahliliy o‘rganish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tergov yoki sud harakatlari jarayonida olib qo'yiladigan elektron ma'lumotlar tegishli bayonnomalarda aniq ko'rsatilishi kerakligi, bunda elektron ma'lumotlarning egasiga bayonnoma nusxasi yoki uning ko'chirmasi topshirilib, tilxat olinishi lozimligi asoslantirilgan;

guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchidan Jinoyat-protsessual kodeksi normalari buzilgan holda olingan yozma va raqamli dalillardan dalil sifatida foydalanish taqiqlanishi lozimligi asoslantirilgan;

olib qo'yish yoki ko'zdan kechirish bo'yicha tergov harakatlari olib borilayotganda mutaxassis ishtirokisiz olingan elektron ma'lumotlar nomaqbul dalillar deb topilishi zarurligi asoslantirilgan;

jabrlanuvchi, guvoh, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining surishtiruvdagi, dastlabki tergovdagi sudda dalillar majmui bilan o'z tasdig'ini topmagan ko'rsatuvlaridan, shuningdek taxmin, faraz, mish-mishlarga asoslangan ko'rsatmasidan olingan dalillar maqbul emas deb topilishi lozimligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga (bundan buyon matnda JPK deb yuritiladi) qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni loyihasi ishlab chiqilgan;

“maqbul dalil” tushunchasiga mualliflik ta'riflari ishlab chiqilgan;

alohida holatlarda tergov harakatlar xolislarining ishtirokisiz, uzluksiz videotasvirga tushirish orqali texnika vositalaridan foydalangan holda o'tkazilishi bilan bog'liq tartibni joriy etilishi lozimligi asoslantirilgan;

dalillar faqatgina tergov va sud harakatlarini yuritish, tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish bilangina emas, balki JPKda belgilangan boshqa protsessual harakatlarni o'tkazish yo'li bilan ham to'planishi mumkinligini nazarda tutuvchi qoidani milliy qonunchiligimizda aks ettirish lozimligi asoslantirilgan;

insonning xotirasiga ta'sir qiluvchi zamonaviy ilmiy bilimlarga zid bo'lgan har qanday vositalar yoki texnologiyalarni qo'llagan holda olingan dalillar maqbul emas deb topilishi lozimligi asoslantirilgan;

maqbul emas deb topilgan dalillarni aks ettiruvchi ish materiallari tegishli qonunbuzilish faktlarini va ularni sodir etgan shaxslarning aybini isbotlash uchun maqbul dalil sifatida foydalanilishi mumkinligi asoslantirilgan;

jinoyat protsessida ishtirok etishiga monelik qiladigan holatlar mavjud bo'lgan shaxslar tomonidan to'plangan dalillar maqbul emas deb topilishi lozimligi bilan bog'liq tartibni joriy etish lozimligi asoslantirilgan;

isbot qilishni amalga oshiruvchi subyektlar tomonidan dalillarni baholanishi jarayonida ularning maqbulligini aniqlash masalasini hal etish uchun hisobga olinishi lozim bo'lgan holatlar tasnifi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari xalqaro huquqiy hujjatlar va milliy qonunchilik normalari, xorijiy davlatlarning qonunni qo'llash amaliyotidagi ilg'or tajribasi, sotsiologik tadqiqotlar (anketa so'rovi, suhbat, intervyu) hamda statistik ma'lumotlarni tahlil qilish natijalarini umumlashtirish orqali asoslantirilgan, xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o'tgan, tadqiqot natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan, dissertatsiyada O'zbekiston

Respublikasi Oliy sudi va Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlaridan foydalanilgan, o'rganilayotgan institutni yanada takomillashtirish istiqbollariga oid masalalar bo'yicha 300 nafar surishtiruvchi va tergovchilar o'rtasida so'rov o'tkazilgan, shuningdek, 100 dan ortiq tergovga qadar tekshiruv hujjatlari va jinoyat ishlari hamda 150 dan ortiq oqlov hukmlari o'rganilib, natijalar umumlashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar hamda amaliy taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyat, qonun ijodkorligi, huquqni qo'llash amaliyoti, jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlash, milliy qonunchilikni takomillashtirish, shuningdek "Tergovga qadar tekshiruv", "Jinoyat-protsessual huquqi" va "Tergov faoliyati" fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda namoyon bo'ladi, tadqiqot ishining nazariy jihatlariga tayanish kelgusida jinoyat protsessida dalillar maqbulligini ta'minlash jarayonini huquqiy tartibga solish, unda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq yangi ilmiy tadqiqotlar olib borish imkonini berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati jinoyat protsessida dalillar maqbulligini ta'minlash tartibini belgilovchi jinoyat-protsessual qonunchilik normalarining aniq va bir xilda qo'llanilishiga, mazkur sohaga oid faoliyatni takomillashtirish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan qonun hujjatlari loyihalarining ishlab chiqilishida foydalanish mumkinligida ko'rinadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati jinoyat protsessida dalillar maqbulligini ta'minlash bilan bog'liq qonunchilik normalaridagi bo'shliqlarni to'ldirish, huquqni qo'llash amaliyotidagi mavjud xato va kamchiliklarni bartaraf etish, dalillar maqbulligiga qo'yiladigan talablarga rioya qilish, sohaga oid yangi qonun hujjatlari loyihalarini ishlab chiqishda namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jinoyat protsessida dalillar maqbulligini ta'minlashni takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tergov yoki sud harakatlari jarayonida olib qo'yiladigan elektron ma'lumotlar tegishli bayonnomalarda aniq ko'rsatilishi kerakligi, bunda elektron ma'lumotlarning egasiga bayonnoma nusxasi yoki uning ko'chirmasi topshirilib, tilxat olinishi lozimligiga doir takliflardan O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-noyabrdagi O'RQ-1003-sonli Qonunining 1-moddasi 6-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 7-martdagi №3/dn-50-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning inobatga olinishi elektron ma'lumotlarning keyinchalik maqbul emas deb topilishining oldini olishga xizmat qilgan;

guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchidan Jinoyat-protsessual kodeksi normalari buzilgan holda olingan yozma va raqamli dalillardan dalil sifatida foydalanish taqiqlanishi lozimligiga doir takliflardan O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-noyabrdagi O'RQ-1003-sonli Qonunining 1-moddasi 8-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 7-martdagi №3/dn-50-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning inobatga olinishi yozma va raqamli dalillarni maqbul emas deb topish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishga xizmat qilgan;

jabrlanuvchi, guvoh, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining surishtiruvdagi, dastlabki tergovdagi sudda dalillar majmui bilan o‘z tasdig‘ini topmagan ko‘rsatuvlaridan, shuningdek taxmin, faraz, mish-mishlarga asoslangan ko‘rsatmasidan olingan dalillar maqbul emas deb topilishi lozimligiga doir takliflardan “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonun loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 7-martdagi №3/dn-50-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning inobatga olinishi dalillarning maqbul emas deb topiladigan holatlari tasnifini kengaytirishga hamda bu orqali protsess ishtirokchilarining manfaatlari ximoyasini ta‘minlash bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladi;

olib qo‘yish yoki ko‘zdan kechirish bo‘yicha tergov harakatlari olib borilayotganda mutaxassis ishtirokisiz olingan elektron ma‘lumotlar nomaqbul dalillar deb topilishi lozimligiga doir takliflardan O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-noyabrdagi O‘RQ-1003-sonli Qonunining 1-moddasi 8-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 7-martdagi №3/dn-50-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning inobatga olinishi elektron ma‘lumotlarni belgilangan tartibda olinishiga erishish hamda qay holatda olinganda maqbul emas deb topish bilan bog‘liq jarayonlarni tartibga solishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan tadqiqotning asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy nashrlarda 6 ta, xalqaro jurnallarda 3 ta, ilmiy anjumanlarda 5 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, hajmi 125 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Jinoyat protsessida dalillar maqbulligini ta‘minlashning nazariy huquqiy mazmuni**” deb nomlangan bo‘lib, unda dissertant tadqiqot mavzusiga aloqador tushunchalar tahlili, ularning ahamiyati, jinoyat protsessida dalillar maqbulligiga qo‘yiladigan talablar mohiyatini bayon etib bergan hamda joriy etilishi lozim bo‘lgan yangi talablar masalasiga to‘xtalib o‘tgan, ushbu

jarayonni takomillashtirishning ijtimoiy-huquqiy zaruratini tahlil qilgan. Olimlarning tadqiqot mavzusiga oid bahsli fikr-mulohazalariga tadqiqotchining munosabati bayon etilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi *“Jinoyat protsessida dalillar maqbulligi tushunchasi va ahamiyati”* deb nomlanib, unda jinoyat ishlarini yuritish bilan bog‘liq jarayonlarda dalillar maqbulligini ta‘minlashning ahamiyati yoritib berilgan hamda mavzuga aloqador tushunchalar tahlil qilingan. Jinoyat-protsessual qonunchiligi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda “maqbul dalil” tushunchasi bo‘yicha hech qanday ta‘rif keltirilmaganligini muammo sifatida ko‘rsatgan tadqiqotchi “dalil”, “maqbul emas dalil” hamda “nomaqbul dalil” kabi tushunchalarni tahlil qilish orqali yuqorida keltirilgan tushunchalarga o‘z munosabatini bayon etgan. Shuningdek, dissertant “maqbul dalil” tushunchasining mualliflik ta‘rifini taklif etar ekan, bu borada B.A. Rajabov, L.Z. Turdiyev, P.I. Grebenkin, Y.E. Kurziner, V.S. Popov, Y.B. Smagorinskaya kabi olimlarning ilmiy qarashlari hamda JPK va boshqa qonun hujjatlari normalari tahlili asosida o‘z fikrlarini asoslantirib bergan.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi *“Jinoyat protsessida dalillar maqbulligiga qo‘yiladigan talablar tahlili”* deb nomlangan. Unda tadqiqotchi dalillar maqbulligiga qo‘yilgan talablar jinoyat-protsessual qonunchiligida yetarli darajada ifoda etilmaganligi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorida bu bilan bog‘liq talablar batafsilroq bayon etilganligi, ammo Oliy sud Plenumi qarori normativ-huquqiy hujjat hisoblanmaligini va unda belgilangan qoidalarning bajarilishi barcha uchun majburiyligi masalasi baxsli masala ekanligini inobatga olgan holda ushbu qarorda ko‘rsatib o‘tilgan dalillar maqbulligiga qo‘yilgan talablar qayta ko‘rib chiqilib, yanada takomillashtirilgan holda JPKning o‘zida aks ettirilishi bo‘yicha takliflarni ilgari surgan. Shuningdek, dissertant jinoyat-protsessual qonunchiligida dalillarga baho berishda ularning ishonchliligi masalasiga alohida e‘tibor qaratilmaganligini muammo sifatida ko‘rsatib, bu bilan bog‘liq qoidalarni batafsilroq bayon etish lozimligini, “noma‘lum manbadan yoxud jinoyat ishini yuritish jarayonida aniqlash mumkin bo‘lmagan manbadan” va “jabrlanuvchi, guvoh, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining surishtiruvdagi, dastlabki tergovdagi sudda dalillar majmui bilan o‘z tasdig‘ini topmagan ko‘rsatuvlaridan” olingan faktik ma‘lumotlar maqbul emas deb topiladigan dalillardan ko‘ra qo‘proq dalillarning ishonchli emasligi bilan bog‘liq qoidalarga singdirilishi hamda ulardan isbot qilishda foydalanilmasligini belgilab qo‘yilishi to‘g‘riroq bo‘lishi yuzasidan fikrlarni ilgari surgan. Ushbu fikrlar asosida JPKning 95-moddasida nazarda tutilgan dalillar qaysi holda ishonchli hisoblanishi bilan bog‘liq qoidalarga o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Izlanuvchi JPKning 95¹-moddasidagi dalillarni maqbul emas deb topish asoslarini qayta ko‘rib chiqish hamda ularning ayrimlarini 88-moddasidagi isbot qilishda taqiqlanadigan holatlar qatoriga kiritish, ayrimlarini dalillarning ishonchliligi nuqtayi nazaridan baholash mezonlarini aniqroq belgilash zarurati mavjudligini ko‘rsatib bergan.

Dissertatsiyaning “**Jinoyat protsessida dalillar maqbulligini ta’minlashning retrospektiv tahlili, bugungi holati va mavjud muammolar**” nomli ikkinchi bobida tadqiqotchi mamlakatimizda dalillar maqbulligi bilan bog‘liq qoidalarning shakllanish tarixini o‘rgangan holda ushbu qoidalarning bugungi ko‘rinishdan farqlarini tahlil qilgan, jinoyat ishlarini yuritish jarayonida dalillar maqbulligini ta’minlashning bugungi holatini tadqiq etgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi “*Jinoyat protsessida dalillar maqbulligiga doir qoidalarning retrospektiv tahlili*” deb nomlanib, mazkur paragrafda jinoyat-protsessual huquqida dalillar maqbulligiga oid qoidalarning tarixi va ularning rivojlanish jarayonlari bayon etilgan. Unda O‘zbekistonning tarixiy davrlari bo‘yicha sud jarayonlarida dalillarning qabul qilinishi qanday qoidalarga asoslangani, turli davrlardagi huquqiy tizimlar (odat huquqi, zardushtiylik qoidalari, shariat qoidalari, chor Rossiya qonunchiligi va mustaqillik davri qonunlari) qanday ta’sir ko‘rsatgani tahlil qilingan. Shuningdek, dalillar maqbulligiga oid qoidalarning eng so‘nggi talablarga muvofiq takomillashuvi, inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlashga qaratilgan islohotlar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar haqida to‘xtalib o‘tilgan.

Mamlakatimiz hududida tarixiy davrlarda amalda bo‘lgan 1922-yildagi RSFSR JPK, 1926, 1929, 1959-yillardagi O‘zbekiston SSR va 1994-yilda qabul qilingan amaldagi O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodekslarini o‘zaro qiyoslash asosida amalga oshirilgan tahlillardan kelib chiqib, jinoyat-protsessual huquqi tarixida dalillar maqbulligiga doir protsessual qoidalarning tarixiy rivojlanish bosqichlarini shartli ravishda quyidagicha beshta bosqichga ajratib o‘rganilgan:

birinchi bosqich, eramizdan oldingi VI asrlargacha bo‘lgan bosqich bo‘lib, ushbu davrda O‘zbekiston hududida mavjud bo‘lgan qadimgi davlat tuzilmalarida (manbalarga ko‘ra Turk davlati) sudlov ishlarini yuritish faqat odat normalariga asoslangan (haqiqatga sajda qilish buyuk qonun sanalagan);

ikkinchi bosqich, eramizdan avvalgi VI asrdan eramizning VIII asriga qadar bo‘lgan bosqich bo‘lib, ushbu davrda O‘zbekiston hududida mavjud bo‘lgan qadimgi davlatlarda sudlov ishlarini yuritish odat normalari bilan bir qatorda zardushtiylik dinining g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan “Avesto”da belgilangan qoidalar asosida tartibga solingan;

uchinchi bosqich, VIII asrdan to XIX asrning oxiriga qadar bo‘lgan davrni qamrab olib, bu davrda mamlakatimiz hududidagi sudlov ishlarini yuritish islom dinining tartib taomillari asosida shakllantirilgan shariat normalari bilan tartibga solingan. Bu davr mamlakatimiz hududiga arablar istilosi va buning natijasida islom dinining yoyilishi va ijtimoiy hayotning turli sohalarida shariat normalariga asoslanib ish yuritilishi bilan ajralib turadi;

to‘rtinchi bosqich, yurtimiz hududlari chor Rossiyasi boshqaruviga o‘tishidan mustaqillik qo‘lga kiritilgunga qadar vaqt oralig‘ini qamrab olib, bu davrda Rossiya qonunlari amal qilinishi boshlangan va shariat normalariga amal qilish bosqichma-bosqich tugatilgan, jinoyat-protsessual normalar kodifikatsiyalashtirilgan holda qabul qilingan;

beshinchi bosqich, mustaqillik va undan keyingi davr. Ushbu bosqich sud-huquq sohasida demokratiya va inson huquqlari ustuvorligini qat’iy ta’minlashga qaratilgan

zamonaviy islohotlar, jinoyat-protsessual normalarning eng so‘nggi talablar asosida takomillashtirilishi, insonni eng oliy qadriyat sifatida talqin qilgan holda huquq va erkinlari kafolatlarini kuchaytirishga qaratilgan o‘zgartishlarning kiritilib borilayotganligi bilan o‘ziga xosligini ko‘rsatadi.

Mazkur bobning *“Jinoyat protsessida dalillar maqbulligini ta‘minlashning bugungi kundagi holati va mavjud muammolar”* deb nomlangan ikkinchi paragrafida jinoyat protsessida dalillar maqbulligini ta‘minlashning hozirgi holati, mavjud muammolar va ularni hal etish bo‘yicha yondashuvlar yoritib berilgan. Unda dalillarning maqbulligiga doir qonunchilikdagi huquqiy bo‘shliqlar, amaliyotdagi kamchiliklar, tergovchi va surishtiruvchilarning bilim hamda malakasi yetishmasligi bilan bog‘liq masalalar muhokama qilingan. Shuningdek, dalillarni baholashda mantiqqa amal qilish zarurati va qonunchilikdagi nomuvofiqliklarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar bayon etilgan.

Dissertant jinoyat protsessida dalillar maqbulligini ta‘minlashdagi mavjud muammolarni batafsil yoritib berish maqsadida ularni quyidagi turlarga ajratgan holda alohida tadqiq etgan:

- 1) dalillar maqbulligini ta‘minlash bilan bog‘liq tashkiliy muammolar;
- 2) dalillar maqbulligi bilan bog‘liq nazariy muammolar;
- 3) dalillar maqbulligiga doir qonunchilikdagi bo‘shliq va nomuvofiqliklarning mavjudligi bilan bog‘liq muammolar;
- 4) dalillar maqbulligini aniqlashga mas‘ul bo‘lgan isbot qilish subyektlarining huquqiy bilim, ko‘nikma va malakalarining yetishmasligi bilan bog‘liq muammolar.

Tadqiqotchi jinoyat-protsessual qonunchilikda dalillar maqbulligini ta‘minlash bilan bog‘liq tashkiliy muammolardan biri sifatida dalillarni to‘plash, tekshirish va rasmiylashtirish jarayonida yuzaga keladigan huquqiy va tashkiliy murakkabliklarni keltirib o‘tgan. I.V.Abrosimov va B.A.Rajabov kabi olimlarning ilmiy qarashlari asosida, dalillarni to‘plashdagi tashkiliy xatolar tergov harakatlari vaqti, joyi, tartibi va qatnashuvchilar tarkibi bilan bog‘liq ekanligi ta‘kidlanib, noto‘g‘ri rasmiylashtirilgan dalillar sud jarayonida qanday qilib faktik ma‘lumotlar nomaqbul dalil deb topilishiga misollar keltirilgan hamda ushbu holatlarning oldi olinishi uchun isbotlash subyektlarining huquqiy bilimini oshirish, qonunchilik talablariga so‘zsiz rioya qilish va protsessual qoidalarni soddalashtirish tavsiya sifatida berilgan.

Shuningdek, izlanuvchi tomonidan JPKning 352-moddasi doirasida tergov jarayonida xolislarni jalb etish bo‘yicha talablar va ular bilan bog‘liq tashkiliy muammolar tahlil qilinib, xolislar ishtirokini ta‘minlash jarayonidagi byurokratik to‘siqlar va vaqt talab qiladigan tartib-taomillar samarali tergov va adolatli sudlovga xalaqit berayotganligi ta‘kidlangan hamda ushbu muammolarga yechim sifatida qonunchilikdagi talablarni qayta ko‘rib chiqish va tergov jarayonida uzluksiz videotasvirga olgan holda xolislarsiz dalillarni to‘plash imkonini beruvchi qoidalarni jinoyat-protsessual qonunchilikka kiritish taklif etilgan. Ushbu taklifning inobatga olinishi jinoyat ishini yuritishdagi jarayonlarni soddalashtirish va dalillar maqbulligini ta‘minlashga yordam berishi mumkinligini ta‘kidlagan dissertant mazkur fikrlar 300 nafar surishtiruvchi va tergovchilar ishtirokida o‘tkazilgan anketa so‘rovnomalariga asoslanganligini, ishtirokchilarning 88%i tergov jarayonida xolislarsiz texnik vositalardan foydalanish taklifini qo‘llab-quvvatlaganligini aytib o‘tgan. Bundan

tashqari, tadqiqotchi xolislar qaysi holatlarda tergov harakatlarida ishtirok etmasligi masalalarini ham qonunchilikda ifoda etish taklifi bilan chiqib, borish qiyin bo'lgan joylarda, shuningdek maxsus vositalardan foydalanilmaganda inson xayoti va sog'lig'iga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan holatlarda o'tkaziladigan tergov harakatlari ushbu holatlarga kirishini ta'kidlab o'tgan.

Tadqiqotchi dalillar maqbulligi tushunchasiga oid nazariy muammolarni ham tahlil qilgan holda maqbul va nomaqbul dalillar tushunchasini chuqurroq o'rganishni taklif qilib, ishda foydalanilishi mumkin bo'lmagan ma'lumotlarga "dalil" atamasini ishlatish mantiqqa zid ekanligini qayd etgan. Bu borada Armaniston, Moldova va Yaponiya qonunchiligida "nomaqbul dalillar" o'rniga ularni "dalil sifatida nomaqbul materiallar" yoki "dalil deb hisoblanmaydigan ma'lumotlar" sifatida ifodalash amaliyoti ijobiy tajriba sifatida keltirib o'tilib, ushbu tajribani O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga joriy etish taklifi ilgari surilgan.

Dastlabki dalil nomaqbul deb topilganda, ushbu dalilga tayangan holda olingan hosila dalillar ham nomaqbul deb topilishi muvofiq holat ekanligini ta'kidlagan tadqiqotchi, dastlabki, ya'ni o'zak dalilning nomaqbulligi avvalo o'ziga taalluqli bo'lishi, unga asosan aniqlangan boshqa dalillar JPKdagi maqbullik talablariga javob bersa va ishdagi dalillar majmuiga mutanosib bo'lsa dastlabki dalilning nomaqbulligi ta'sirida nomaqbul deb topilmasligi lozimligi haqida fikrlarni ilgari surgan.

Dalillar maqbulligini ta'minlashga mas'ul bo'lgan subyektlarning huquqiy bilim, malaka va ko'nikmalarining yetishmasligi bilan bog'liq muammolarni tahlil qilgan izlanuvchi dalillarni baholashda huquqiy bilimlar va mantiqiy fikrlashning ahamiyatini ta'kidlab, isbot qilish subyektlarining professional saviyasini oshirish bo'yicha takliflar bergan. Tadqiqot doirasida o'tkazilgan anketa so'rovnomalari natijalariga ko'ra, respondentlarning katta qismi (86%) dalillarni baholashda mantiqqa asoslanish kerakligini qo'llab-quvvatlaganligi, shuningdek, 73% respondentlar "Mantiqiy fikrlash" fanini huquqni muhofaza qiluvchi organlar tasarrufidagi ta'lim muassasalari o'quv dasturlariga kiritish zarurligini bildirganligi asos sifatida keltirib o'tilgan.

Dissertatsiyaning "**Jinoyat protsessida dalillar maqbulligini ta'minlashni takomillashtirish masalalari**" nomli uchinchi bobida tadqiqotchi tomonidan jinoyat-protsessual qonunchilikda dalillar maqbulligiga doir qoidalar, ularning milliy va xorijiy amaliyotdagi tatbiqi, shuningdek mavjud bo'shliq va kamchiliklar tahlil qilinib, ushbu faoliyatni takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi "*Dalillar maqbulligini ta'minlashga doir xorijiy mamlakatlarning ijobiy tajribasi va uni milliy qonunchilikka tatbiq qilish masalalari*" deb nomlanib, mazkur paragraf Armaniston, Moldova, Ukraina, Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Estoniya, Ozarbayjon va Yaponiya kabi davlatlarning jinoyat-protsessual qonunchiligida dalillarni maqbul deb topish va ularni tekshirish bo'yicha ilg'or yondashuvlar o'rganilgan.

Dissertant Ukraina qonunchiligida himoya va ayblov taraflarining teng huquqliligi, Moldova va Qirg'izistonda dalillarni to'plash jarayonini soddalashtiruvchi "protsessual harakatlar" konsepsiyasi misol sifatida keltirib, JPKning 87-moddasiga "boshqa protsessual harakatlarni o'tkazish"ni dalil to'plashning bir yo'li sifatida kiritishni taklif etgan.

Shuningdek, Armaniston, Ukraina, Moldova, Rossiya, Tojikiston, Estoniya, Ozarbayjon va Yaponiya qonunchiligidagi ijobiy tajribalar tahlil qilgan holda JPKning 95¹ va 88-moddalarida nazarda tutilgan dalillar maqbulligiga oid tartib va shartlarni bir-biriga muvofiqlashtirish bo'yicha taklif asoslantirilgan.

JPKning 90-moddasida belgilangan dalillarning tergov harakati yoki sud majlisi bayonnomasida qayd etilishi bo'yicha qoidalarni tahlil qilgan tadqiqotchi JPKning 90-moddasi ikkinchi qismi bilan 147-moddasi o'rtasidagi qarama-qarshiliklarga e'tibor qaratib, guvohlantirish tergov harakatining bayonnomasi shifokor yoki tibbiyot mutaxassislari tomonidan tuzilishi jarayonida yuridik bilimlarning yetishmasligi sababli qonun talablarining buzilishi ehtimoli qayd etgan hamda bu borada tegishli o'zgartirishlar bo'yicha takliflar bergan. Shuningdek, JPKning 90-moddasidagi bayonnoma yuritish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar qatoriga tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi ham kiritilishi bo'yicha fikrlar bayon etilgan.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafi "*Jinoyat protsessida dalillar maqbulligini ta'minlashni takomillashtirish istiqbollari*" deb nomlanib, unda dalillarning maqbulligini belgilashdagi me'yoriy-huquqiy asoslar, sud-tergov amaliyotida yuzaga kelayotgan muammolar va ularning yechimlari tahlil qilingan, bir qator taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotchi jinoyat protsessida dalillarning maqbulligi masalasi qonun ustuvorligi va adolatni ta'minlashda muhim o'rin tutishini, mavjud qonunchilikda dalillarni maqbul emas deb topish asoslari belgilangan bo'lsa-da, ularda muayyan huquqiy bo'shliqlar mavjudligi, xususan, jinoyat protsessida ishtirok etishga monelik qiladigan holatlar JPKda aniq belgilangan bo'lsa-da, ushbu holatlar mavjud bo'lgan shaxslar tomonidan to'plangan dalillarning maqbulligi masalasi mavhum qolayotganligi, shu bois ham amaliyotda ayrim holatlarda qonun buzilishlari dalillar majmuiga ta'sir qilsa-da, ularni nomaqbul deb topish bo'yicha bir xil yondashuv ta'minlanmayotganligini tanqid qilib o'tgan. Ayrim xorijiy davlatlar, jumladan, Armaniston, Moldova va Ozarbayjon qonunchiligida jinoyat protsessida ishtirok etishga monelik qiladigan holatlar mavjud shaxslar to'plagan dalillar nomaqbul deb hisoblanishi qoidalarining mavjudligi joriy etish lozim bo'lgan tajribalardan biri sifatida keltirib o'tilgan. Tadqiqot doirasida o'tkazilgan so'rov natijalari keltirilib, ko'pchilik respondentlar ushbu qoidani milliy qonunchiligimizga kiritish taklifini qo'llab-quvvatlashgani ta'kidlangan.

Shuningdek, inson xotirasiga yoki irodasiga ta'sir etuvchi har qanday zamonaviy texnologiyalar va vositalarni qo'llagan holda olingan dalillarni maqbul emas deb topish masalalariga alohida to'xtalib o'tilgan. Mazkur fikrlar Armaniston (JPK 105-modda), Moldova (JPK 94-modda), Ozarbayjon (JPK 125-modda) va Tojikiston (JPK 88-modda) qonunchiligi tajribalari hamda o'tkazilgan anketa so'rovnomalari natijalari orqali asoslab berilgan. Xususan, respondentlarning 84 foizi mazkur taklifni qo'llab-quvvatlab, bunday usullar orqali to'plangan ma'lumotlarni nomaqbul dalil sifatida baholash zarurligini ta'kidlashgan.

JPKning 95¹-moddasida taxmin, faraz yoki mish-mishlarga asoslangan ma'lumotlarni nomaqbul dalil sifatida baholashga oid aniq qoida mavjud emasligi, bu esa amaliyotda dalillar maqbulligini baholashda muayyan huquqiy bo'shliqni yuzaga keltirayotganligini ta'kidlagan izlanuvchi milliy qonunchiligimizda ushbu qoidani joriy etish zaruratini asoslab bergan.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari nazariy, amaliy-tashkiliy va qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan quyidagi ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalarga ajratilgan holda bayon etildi:

I. Jinoyat-protsessual huquqi nazariyasini rivojlantirish bo'yicha ilmiy xulosalar:

1. Nazariy qarashlarni ilmiy tahlil qilish orqali quyidagi tushunchaga mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi:

“**Maqbul dalillar** deyilganda, ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga molik holatlarni aniqlashga asos bo'ladigan, qonunda belgilangan tartibda to'plangan, tekshirilgan va baholangan hamda isbot qilishda foydalanishga yaroqli bo'lgan faktik ma'lumotlar tushuniladi”.

2. Jinoyat protsessida dalillar maqbulligini ta'minlashdagi mavjud muammolarni batafsil yoritib berish maqsadida ularni quyidagicha tasniflandi:

1) dalillar maqbulligini ta'minlash bilan bog'liq tashkiliy muammolar;

2) dalillar maqbulligi bilan bog'liq nazariy muammolar;

3) dalillar maqbulligiga doir qonunchilikdagi bo'shliq va nomuvofiqliklarning mavjudligi bilan bog'liq muammolar;

4) dalillar maqbulligini aniqlashga mas'ul bo'lgan isbot qilish subyektlarining huquqiy bilim, ko'nikma va malakalarining yetishmasligi bilan bog'liq muammolar.

